

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov	
Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
<hr/>	
PEDAGOGIKA	
B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
Ким Владимир	
Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов	15
A.H.Amonov	
Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.	20
N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
O.Q.Xasanova	
Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati	28
M.E.Abdullayev	
O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	34
B.Sh.Turg'unboyev	
Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar	37
X.A.Kadirova	
Tibbiyot oliygochlarda tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov	
Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori	49
D.K.Karimov	
Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
K.F.Nazarova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiylarini rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
J.Dj.Sultanov	
Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
X.X.Xasanbayev	
Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
O'R.Maxmudov	
O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
I.Y.Masharipov	
Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili	71
F.O.Qo'ysinova	
Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi	75
R.X.Ibragimov	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish	78
A.Tuychiyev	
Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

MUDOFAA TIZIMIDA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISH MEXANIZMI

МЕХАНИЗМ ПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ВОЕННЫХ ПЕДАГОГОВ В СИСТЕМЕ ОБОРОНЫ

THE MECHANISM OF TRAINING AND IMPROVING THEIR QUALIFICATIONS OF MILITARY EDUCATORS IN THE DEFENSE SYSTEM

Xasanbayev Xabibullo Xakmbek o'g'li¹

¹Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta'lif muassasalari harbiy o'qituvchilarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllantishidagi muammolar, harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish masalalari yoritilgan.

Аннотация

В статье описаны проблемы формирования военных преподавателей высших военно-учебных заведений Министерства обороны Республики Узбекистан как профессиональных военных педагогов, вопросы подготовки военных педагогов и повышения их квалификации.

Abstract

The article describes the problems in the formation of military teachers of higher military educational institutions under the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan as professional military pedagogues, the issues of training military pedagogues and improving their qualifications.

Kalit so'zlar: Pedagog, harbiy pedagogika, professor-o'qituvchilar, kasbiy-pedagogik malaka, kasbiy-pedagogik madaniyat, shaxsiy mas'uliyat, ofitser, mashg'ulot, oliy harbiy ta'lif muassasalari.

Ключевые слова: Педагог, военная педагогика, преподаватели, профессионально-педагогическая квалификация, профессионально-педагогическая культура, личная ответственность, офицер, подготовка, высшие военные учебные заведения.

Key words: Pedagogue, military pedagogy, teachers, professional-pedagogical qualification, professional-pedagogical culture, personal responsibility, officer, training, higher military educational institutions.

KIRISH

Har qanday davlat zamonaviy dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun sharoit yaratmasdan turib mavjud bo'lolmaydi. Siyosiy jihatdan bu davlat tizimini uzoq muddatli takomillashtirish chorasisidir[1]. Mustahkam davlat mudofaaasini shakllantirish va ta'minlash uchun yuqori malakali ofitserlar talab etiladi. Harbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ofitserlar quyidagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim: zamonaviy qurolli kurashning taktikasi va usullarini mukammal egallaganligi; harbiy harakat jarayonida axborot ta'minoti tendensiyalarini bilish; qo'shinlar jangavor harakatini rejalashtirish va ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llay olish.

TAHLIL

Ofitserlarni tayyorlashning zamonaviy mezonlariga asoslanib, harbiy ta'lif muassasalari uchun harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini shakllantirish muhum o'rinn tutadi. Bunda bo'lajak harbiy pedagog kadrlar quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim.

Birinchi tomondan: harbiy boshqaruven asoslarini o'zlashtirgan; muhim qarorlarni qabul qilish va ularni samarali amalga oshirishga qodir; davlat miqyosida fikrlay oluvchi; harbiy-siyosiy va harbiy-strategik vaziyatni tahlil qilish va ularning rivojini oldindan pragnozlash metodikasini biladigan; shaxsiy tarkibni har qanday sharoitda vazifani bajarishga safarbar qila oladigan; harbiy fan va bir necha xorijiy tilni biluvchi.

Ikkinci tomondan: ilmiy tadqiqot metodologiyasini chuqur o'zlashtirgan, ilmiy muammo va vazifalarni to'g'ri shakllantirish hamda ularni hal etishning zamonaviy texnologiyalarini biladigan, harbiy ilmiy soha rivoji yo'lida ilmiy ishlarni muntazam olib boradigan va tashkillashtiradigan.

Yuqorida keltirilgan omillarning mavjudligi ham harbiy tayyorgarlik ham ilmiy malakani mujassamlashtirgan harbiy pedagogi tayyorlash imkonini beradi.

PEDAGOGIKA

Harbiy pedagogik kadrlarni tayyorlash maqsadiga erishishda quyidagi masalalarini asosiy vazifa sifatida belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi: tinglovchilar o'tasida zarur kompetensiyalarni shakllantirish; ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish; mutaxassislarni magistratura va doktoranturada maqsadli tayyorlashni ta'minlash; ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlashning yangi modelini joriy etish; xalqaro reyting talablari asosida kadrlarni tayyorlash; mahalliy va xorijiy harbiy ta'lif muassasalari o'tasida hamkorlikni tashkil etish; faol kadrlar siyosatini olib borish.

Shunday qilib, harbiy ta'lif muassasalarida harbiy pedagogik kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan maxsus fakultetlar yagona ta'lif maydoniga mos kelishi, ilg'or kadrlar tayyorlash texnologiyalarini joriy etish va harbiy amaliy tadqiqotlar olib borishni ta'minlashi, Qurolli Kuchlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yuqori malakali harbiy pedagog mutaxassislarni tayyorlashi kerak. Maxsus fakultetlar armiyaning intellektual, innovatsion aql markaziga aylanishi va yetarli darajada ilmiy salohiyatga ega bo'lishi kerak.

Maxsus fakultetlarni to'liq faoliyatini ta'minlashda quyidagi masalalar muhim o'rinn tutadi: ilmiy tadqiqot mavzulari qurolli kuchlarning eng dolzarb muammolariga to'liq mos kelishi va harbiy ilm-fanni rivojlantirishga ko'mak berish; ilmiy va eksperimental bazani shakllantirish; harbiy kadrlarga bo'lgan zamonaviy talablarni inobatga olib magistratura, doktorantura uchun harbiy kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish; laboratoriya bazalarining to'liq yaratilishi; maxsus fakultetlarni zamonaviy professional fikrlay oladigan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash darajasini oshirish; professor-o'qituvchilarining xorijiy tillarni yaxshi bilishi, o'qitishning yangi texnologiyalarini qo'llashda xorijiy tajribaga tayanishii; yetakchi xorijiy universitetlar bilan yaqin aloqalar o'rnatalishi; fakultet tinglovchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish ularning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini rivojlantirish.

Harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash modelini ta'lif jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Model harbiy pedagog kadrlarni tayyorlashning mohiyati va mazmunini aks ettiradi, unda ta'lif oluvchchiga majburiy asosiy fanlarni o'rganishdan tashqari, o'zi tanlagan qo'shimcha fanlarni o'rganish imkoniyati beriladi. Bu ijodiy shaxsni rivojlantirishga, harbiy mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini egallahga yordam beradi

Ushbu modelda harbiy pedagoglarning harbiy-kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish xususiyatlari mujassamlashtirilgan. Modelning o'ziga xosligi uning pedagoglarning ilmiy pedagogik tajribasi asosida shakllanganligidadir.

Harbiy pedagoglik kasbini egallahni intellektual tarkibiy qismi harbiy-kasbiy kompetensiyani o'z ichiga oladi (harbiy xizmatchi shaxsning rivojlanish va ijtimoiy-psixologik shakllanishi qonuniyatlarini bilish; harbiy xizmat faoliyati bilan harbiy ta'lifning maqsadlari, vazifalari, shakllari va usullarini bilish), ta'lif(bo'lajak harbiy xizmatchining aqliy rivojlanish qonuniyatlarini bilish va boshqalar); sanogen tafakkur (harbiy sohaga oid faktlar, hodisalar, jarayonlar, tizimlar, vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati; turli vaziyatlarda ijodkorlik, moslashuvchanlik, tanqidilik, izchillik, harakatchanlik, fikrlash samaradorligini ko'rsatish).

NATIJA VA MUHOKAMA

Harbiy pedagoglarni tayyorlashda ularda maxsus professional kasbiy ko'nikmalarni shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda bo'lg'usi harbiy pedagoglarning maxsus professional ko'nikmalarini shakllanishi ularning dastlabki olingen bilimlariga asoslangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqot jarayonida biz harbiy ta'lif muassasalari uchun tayyorlanadigan harbiy pedagog kadrlarni soha yo'nalishlari bo'yicha tayyorgarligini yaxlit jarayon sifatida takomillashtirishga imkon beradigan pedagogik modelni ishlab chiqdik.

Ushbu pedagogik model bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarning kasbiy fanlar bo'yicha tayyorgarligini, yaxlit jarayon sifatida tashkillashtirishga imkon beradi. Bunday model pedagogik shart-sharoitlarning tizim elementlariga ta'sirini aks ettiradi, bunda o'qituvchi obyektiv ravishda talab qilinadigan subyektlarning o'zaro munosabatlarini va o'qitishning optimalligini ta'minlaydi. Modelning har bir tarkibiy elementining mazmun, maqsad va vazifalari bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarning harbiy kasbiy tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi [2]. Pedagogik modelning eng asosiy komponenti bu o'qitishning maqsadi va natijasi hisoblanadi [3]. Modelning qolgan komponentlari tayyorgarlikni boshqarishga doir o'zgaruvchan qismlar hisoblanadi. Boshqaruv

vositalari uning maqsad va natijalariga bog'liq. Tayyorgarlikning tizim sifatidagi yaxlitligi harbiy pedagog kadrlarni faoliyat jarayonida o'z aksini topadi.

Tadqiqot jarayonida mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonining ishlab chiqilgan pedagogik-tashkiliy tuzilmasi (model)ni amaliyotda to'liq joriy etish orqali Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida sirtqi bo'llim "Harbiy pedagoglar tayyorlash va amaliyotga yo'naltirish" magistratura yo'nalishini ochilishi natijasida mudofaa tizimida harbiy pedagoglar tayyorlash bo'yicha birinchi marta innovatsion pedagogik samaradorlikka erishildi.

Modelning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishdagi ustuvor masalalarni ijobji hal etishga olib keldi:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda falsafiy, milliy-ma'naviy, psixologik, pedagogik yondashuvning mazmun va mohiyatini anglashga erishildi; O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda harbiy ta'limgartibiy omillarning ta'sirini hisobga olish hamda harbiy pedagogning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga ko'maklashuvchi asosiy shaxsiy sifatlarga tayanish zarurligi asoslandi.

Ta'limgartibiy tizim sifatida yaxlitligi harbiy ta'limgartibiy muassasalarida ta'limgartibiy obektiv mavjud invariant xususiyatlarida o'z aksini topadi. Bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarni harbiy-kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maxsus fanlar bo'yicha o'qitish jarayonida yuz beradi. Oliy harbiy o'quv yurtida kadrlar tayyorlash tizimining yaxlitligi maxsus va maqsadli shakllantirilgan. Shu bilan birga, mashg'ulotni tuzish didaktik tizimning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish funksiyalarining yaxlitligini saqlagan holda amalga oshiriladi. O'qitishning yaxlitligi uning mazmuni, o'qitishning turli shakllari, usullari va vositalari, o'qituvchilar va kursantlar faoliyati, uning tarkibiy qismlarining to'g'ri nisbatini aniqlashga qaratilgan o'quv jarayoni natijasini nazorat qilish harbiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kasbiy harbiy fanlar bo'yicha o'qitishning maqsadi, umuman olganda, bo'lg'usi harbiy pedagoglarda ish prinsiplari, pedagogika xususiyatlari, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, zimmasiga yuklatilgan harbiy kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishdan iborat. O'qitish natijasi bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarda harbiy kasbiy bilim, ko'nikma va malakaning shakllanish darajasi, kasbiy va shaxsiy rivojlanish darajasi sanaladi.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, taqdim etilgan modelning farqli jihat shundaki, ushbu modelda bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi bloki alovida ajratib ko'rsatilgan. Bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarlarni harbiy kasbiy fanlar bo'yicha tayyorlashning zamonaviy modellarida mashg'ulotlar natijasining ushbu muhim tarkibiy qismiga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Harbiy kasbiy fanlar bo'yicha bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarlarni o'qitish natijalarini etalon (o'quv rejasi) bilan taqqoslash jarayonida tayyorgarlikning maqsad va vositalariga boshqaruvchi ta'sir yuzaga keladi. Bu o'z navbatida butun jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi [4].

Taqdim etilgan modelning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lg'usi harbiy pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning eng istiqbolli yo'nalishi shaxsga yo'naltirilgan kasbiy ta'limgartibiy konsepsiyasidan foydalanish hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan kasbiy ta'limgartibiy konsepsiysi quyidagi qoidalarga asoslangan: dastlab professional jarayonning subekti bo'lg'an bo'lg'usi harbiy pedagogning individualligi, o'zini o'zi qadrlash ustuvorligi tan olinadi; harbiy professional ta'limgartibiy texnologiyalarining barcha pog'onalari bo'lg'usi harbiy pedagog shaxsining professional shakllanishi qonuniyatları bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim; harbiy professional ta'limgartibiy mazmuni zamonaviy ijtimoiy, axborot, maxsus texnologiyalarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi va kelajakdagi harbiy professional faoliyatga mosligi.

Ushbu modelning barcha tarkibiy elementlarining o'zaro bog'liqligi harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonining yaxlitligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Taqdim etilgan modelda mazmun tayanch omil vazifasini bajarib, uning tarkibiy elementlari yuqori malakali harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadiga asoslanadi. Mazkur model mukammal, profesional harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda oliy harbiy ta'limgartibiy muassasasini takomillashtirish rivojlanish vazifasini o'taydi.

PEDAGOGIKA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jaksilikov R. F. Sovershenstvovaniye voyennogo obrazovaniya v svete sovremenix realiy // Filosofiya obrazovaniya (Astana). 2012. № 4 (43) S.5
2. Salimov A.A. Ta'lim sohasida inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiysi avtoreferati. –Samarqand: 2019. –B.13.
3. Verxoglyad V.M. Sovershenstvovaniye podgotovki kursantov injernernix vvuzov voysk svyazi po voyenno -spetsialnim dissiplinam (na primere UVVIUS): Avtoref. diss. kand. pedag. nauk. Ulyanovsk 2006. S.16
4. Simonenko I.V. Voyenno-professionalnaya podgotovka spetsialistov svyazi na osnove integrasii grajdanskix i voyennix VUZOV: Avtoref. diss. kand. pedag. nauk. Sank-Peterburg, 2012. S.10